

**KOGNITIV KOMPETENSIYA BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINING MUHIM TARKIBIY
QISM SIFATIDA**

Xudoyberganov Doniyor Yangiboy o'g'li, o'qituvchi

Urganch Davlat Pedagogika instituti

d_xudoyberganov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'quv jarayonida o'quvchilarning kognitiv kompetenysiyasini shakllantirishning dolzarbligi ko'rib chiqiladi. Undan tashqari maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarda nafaqat fundamental bilimlarni, balki tez o'zgaruvchan jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan funktsional savodxonlik ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetenysiyasini shakllantirish jarayonga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilinib, ushbu jarayonni murakkabligi va dolzarbligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kognitiv kompetensiya, umumiy madaniy rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, muloqot qobiliyatlari, ijtimoiy javobgarlik, tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, moslashish, o'quv faoliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim standartlari, stressga chidamlilik.

**КОГНИТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ВАЖНАЯ
СОСТАВЛЯЮЩАЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ
ШКОЛЬНИКОВ**

Худойберганов Дониёр Янгибой угли, Преподаватель

Ургенчского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается актуальность формирования когнитивной компетентности учащихся в современном образовательном процессе. Кроме того, в статье подчеркивается необходимость развития у младших школьников не только фундаментальных знаний, но и навыков функциональной грамотности, необходимых для успешной адаптации в быстро меняющемся обществе. Также в статье анализируются факторы, влияющие на процесс формирования познавательной компетентности

младших школьников, уделяется внимание сложности и актуальности данного процесса.

Ключевые слова: Образование, познавательная компетентность, общекультурное развитие, личностное развитие, коммуникативные навыки, социальная ответственность, критическое мышление, информационная грамотность, адаптация, учебные действия, саморазвитие, стандарты образования, стрессоустойчивость.

COGNITIVE COMPETENCE AS AN IMPORTANT COMPONENT OF THE EDUCATIONAL ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Khudoyberganov Doniyor Yangiboy ugli, teacher

Urgench State Pedagogical Institute

Annotation. The article examines the relevance of the formation of cognitive competence of students in the modern educational process. In addition, the article emphasizes the need for younger students to develop not only fundamental knowledge, but also functional literacy skills necessary for successful adaptation in a rapidly changing society. The article also analyzes the factors influencing the process of formation of cognitive competence of younger schoolchildren, pays attention to the complexity and relevance of this process.

Keywords: Education, cognitive competence, general cultural development, personal development, communication skills, social responsibility, critical thinking, information literacy, adaptation, educational activities, self-development, educational standards, stress tolerance.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda tashabbuskor, mas'uliyatli, malakali va kommunikativ qobiliyatlari rivojlangan shaxsga katta ehtiyoj mavjud. Shu nuqtayi nazardan, maktab o'quvchisining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar nafaqat yuqori darajadagi fundamental bilimlarni, balki funksional savodxonlik darajasidagi bilimlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Ta'limning yangi avlod standartlari o'quvchilarning umumiy madaniy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlashi, shuningdek, asosiy kompetensiyalarni, shu jumladan kognitiv kompetensiyasini shakllantirishni o'z

oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu maqsadlar zamonaviy jamiyatda tez o'zgarib turadigan sharoitlarga moslashuvchanlikni talab qiladigan, bilim olish qobiliyati muvaffaqiyatli hayot va kasbiy faoliyat uchun asosiy mahorat asosiga aylanishini tushunishga asoslangan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Umumiy madaniy rivojlanish o'quvchilarda keng dunyoqarashni, madaniyat, san'at, tarix asoslarini, boshqa milliy va madaniy an'analarni tushunishni shakllantirishni qamrab oladi. Bu turli xil bilimlarni idrok etish va jamiyatdagi farqlarga nisbatan bag'rikenglik munosabati uchun barqaror asos yaratishga yordam beradi. Shaxs rivojlanishi atrofdagi dunyoga va boshqa odamlarga nisbatan qadriyatli munosabatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bunga o'z-o'zini anglash, o'z o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat qobiliyatlarini rivojlantirish kiradi. Ijodkorlik, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish ham ushbu jihatning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Kognitiv rivojlanish esa, asosan axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu erda muhim jihat-yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'rganish, ma'lumotlarni etarli darajada baholash va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish deb belgilangan. Bunga axborot savodxonligini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati kiradi.

Shunday qilib, yangi avlod standartlariga muvofiq ta'limning maqsadi nafaqat bilimlarni uzatish, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va fazilatlar to'plamiga ega o'quvchilarni shakllantirish bo'lib, bu erda kognitiv qobiliyat asosiy kompetensiya vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ta'limning amaliyotga yo'nalganligi tufayli ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy natijasi o'z-o'zidan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi emas, Xutorskiy Andrey Viktorovich tomonidan shakllantirilgan asosiy kompetensiyalar to'plami sifatida namoyon bo'lishi kerak:

1. Qadriyatli-semantik kompetensiya - atrofdagi dunyoni tushunishga, unda faoliyat olib borishga, o'z o'rnini va maqsadini anglashga, o'z harakatlari uchun

maqsadli va semantik munosabatlarni tanlashga hamda qaror qabul qilishga tayyorlik darajalarini anglatadi.

2. Umummadaniy kompetensiya – o'quvchilarni milliy va umuminsoniy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari, insoniyat hayotining ma'naviy va axloqiy asoslari, alohida xalqlar, oilaviy, ijtimoiy hodisalar hamda urf-odatlarining madaniy asoslari, fan va dinning inson hayotidagi o'rni, ularning dunyoga ta'siri, bo'sh vaqtni tashkil etishning samarali usullari to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

3. Kognitiv kompetensiya – ta'lim oluvchining mustaqil bilim olish, maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiyalash, o'quv faoliyatda o'z-o'zini baholash, faktlarni taxminlardan ajratish qobiliyati, ehtimollik, statistik va boshqa bilish usullaridan foydalanish kabi hususiyatlarni o'z ichiga oladi .

4. Axborot kompetensiya – o'quvchilarning turli manbalardagi ma'lumotlar bilan mustaqil ishlashga, kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlashga, uni o'zgartirish, saqlash va uzataolish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi.

5. Kommunikativ kompetensiya - kerakli tillarni bilishni, atrofdagi va uzoqdagi odamlar hamda voqealar bilan o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi, guruhiiy ishlash ko'nikmalarini, jamoada turli xil maxsus rollarni egallashni ta'minlaydi. Ushbu kompetensiyaga ega bo'lgan o'quvchilar o'zini tanishtirish, so'rovnomalar, hisobot yozishi, munozara olib borish kabi ammalrni bajaraoladi.

6. Ijtimoiy mehnat kompetensiyasi - fuqarolik va ijtimoiy faoliyatda bilim va tajribaga ega bo'lish (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil rolini bajarish), ijtimoiy va mehnat sohasida (iste'molchi, xaridor, buyurtmachi, ishlab chiqaruvchi), oilaviy munosabatlar, iqtisodiyot va huquq masalalarida namoyon bo'ladi.

7. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi - jismoniy, ma'naviy va intellektual o'zini o'zi rivojlantirish, hissiy o'zini o'zi boshqarishga tayyorlik.

O'z-o'zini takomillashtirish kompetensiyasi - bu shaxsning jismoniy, ma'naviy, intellektual va hissiy o'zini o'zi rivojlantirish kabi turli jihatlarida rivojlantirishga ichki tayyorligi. Ushbu kompetensiya o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini anglashga intilish, o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish

hamda o'quvchining ichki dunyosini samarali boshqarish qobiliyatiga qaratilgan [3].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bizning tadqiqotimizning predmeti boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayoninin ajralmas qismi sifatida kognitiv kompetensiyani shakllantirish jarayoni etib belgilangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv kompetensiyani shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, yangi yondashuv va metodlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish muammosining dolzarbligi quyidagi omillarga bog'liq:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ushbu bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati o'rtasidagi nomuvoffiqlikning mavjudligida;
- bolalarning umumiy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishini optimallashtirish, ularni muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratish maqsadida ta'lim muhitini jadal takomillashtirish zaruratida;
- ta'lim muhitining yahlitligini hamda ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini saqlash zaruratida;
- dezadaptasiya (noto'g'ri ishlash) muammolari, maktab ta'limiga tayorlikning past darajasi tufayli o'rganish qobiliyatini ta'minlaydigan universal ta'lim harakatlari tizimini maqsadli nazorat ostida shakllantirish vazifasi keskinlashishida.

Zamonaviy maktabda asosiy e'tibor nafaqat ma'lum bilimlarni uzatish, balki o'quvchilarda asosiy kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan. O'quv jarayonining muhim jihatlaridan biri bu bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish sanaladi. Bunga ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, nostandart muammolarni hal qilish qobiliyati va o'z fikr va g'oyalarini ijodiy shaklda ifoda etish qobiliyati kiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim olish qobiliyatini – kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga ham katta etibor qaratilgan. Bu nafaqat faktlarni o'quv material sifatida eslab qolish qobiliyatini,

balki ma'lumotni tahlil qilish, asosiy mazmunni belgilash, muammolarga mustaqil ravishda echim izlash qobiliyatini ham anglatadi. O'quvchilarga amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarish hamda tadqiqot loyihalarida qatnashish orqali bilim olish imkoniyatlari beriladi.


Shu bilan birga, mustaqil ta'lim olish qobiliyati ham ta'limning muhim jihatiga aylanadi. O'quvchilar mustaqil ravishda ma'lumot qidirishni, uni tahlil qilishni, olingan bilimlar asosida qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bu ularning mustaqilligini, o'quv jarayoni uchun javobgarlik hissini rivojlantiradi va kelajakda foydali bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantiradi.

Zamonaviy maktabda nafaqat aniq bilimlarni uzatishga, balki bolaning shaxsining har tomonlama rivojlantirishga ham e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchilarda nafaqat tayanch bilimlarni shakllantirish, balki tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli moslashishga tayyorgarlik ko'rishdan iborat. Zamonaviy ta'limning asosiy omiliga aylanib borayotgan fikrlash, ijodkorlik, mustaqillik va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich sinf bosqichi - bu ta'lim faoliyatining eng jadal shakllanish davri bo'lib, uning xarakteri va samaradorligiga hamda shaxsning rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Ta'lim jarayonida yaxshi natijalarga erishish, o'z qobiliyatlarini anglash va turli vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish o'quvchini maktabdagi ta'lim jarayonida faol qatnashishi uchun zarur bo'ladigan kompetensiya turlarini shakllantirishga yordam beradi. O'z-o'zini anglashning ushbu yangi jihat, nazariy refleksiv fikrlash bilan bir qatorda, ma'lum bir yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy bosqichi hisoblanadi [2].

MUHOKAMA. Kognitiv kompetensiya o'quvchilarning ta'limiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ongli tajribasi sifatida 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limini modernizatsiya qilish strategiyasida belgilangan asosiy ta'lim kompetensiyalari orasida muhim o'rin tutadi [4].

Kognitiv kompetensiya-bu insonning bilish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, muammolarni hal qilish qobiliyati sanaladi. U quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:



1.1- Rasm. Kognitiv kompetensiya komponentlari

Intellectual qobiliyatlar: mavhum fikrlash, tahlil qilish va sintez qilish, muammolarni hal qilish qobiliyati;

Abstrakt (mavhum) fikrlash: o'rganish, ma'lumotni mustaqil izlash va qayta ishlash qobiliyati;

Tanqidiy fikrlash: axborotni tanqidiy tahlil qilish, qabul qilingan qarorlarning ishonchliligi va asoslilikini baholash qobiliyati.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limini 2030-yilgacha modernizatsiya qilish strategiyasida kognitiv kompetensiya asosiy ta'lim kompetensiyalaridan biri sifatida ajratib ko'rsatilgan. Bu, o'quv jarayonida o'zlarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishlari, bilim strategiyalari va tanqidiy fikrlashni o'zlashtirishlari kerakligini anglatadi [4].

Kognitiv kompetensiya bolaning ijtimoiy raqobatbardoshligining asosiy omili sifatida o'rganilishi kerak kerak. Bu nafaqat sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlaydi, balki kasbni egallash, zarur malakaga erishish va kerak bo'lganda mutaxassislikni muvaffaqiyatli o'zgartirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kognitiv kompetensiya tayanch kompetensiya hisoblanib u boshqa ta'lim kompetensiyalarni tarkibiy qismi sanaladi. Ushbu kompetensiyani samarali

shakllantirish ko'p jihatdan bilim olish jarayonini muvaffaqiyatli rivojlanishiga bog'liq bo'lib, bu uning ta'lim jarayonida asosiy o'rin egallaydi.

Kognitiv kompetensiya-bu insonning bilim olish, bilimlarni egallash, qayta ishlash va undan foydalanish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyati bo'lib u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Fikrlash: tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, mavhumlashtirish, taqqoslash, tasniflash, muammolarni hal qilish qobiliyati.

Xotira: ma'lumotni saqlash va ko'paytirish qobiliyati.

Tasavvur: yangi tasvirlarni yaratish qobiliyati.

Nutq: fikrni tushunish va ifoda etish qobiliyati [5].

XULOSA. Kognitiv kompetensiyani rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchisini o'qitish va rivojlantirish jarayonida muhim qadam sanaladi. Bu ularga yangi ma'lumotlarni o'rganish va tushunishga, muammolarni hal qilishga, vazifalarni bajarishga va hayotda yanada muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi [6].

Shunday qilib, kognitiv kompetensiya muvaffaqiyatli o'quv strategiyalarini shakllantirishda, shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu samarali ta'lim olish va doimiy o'zgaruvchan sharoitga muvaffaqiyatli moslashish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov A. Kognitiv ko'nikma ta'limning asosiy kompetensiya sifatida. TDPU ilmiy axborotlari, 2022 yil (2-son), 12-17 b.

2. Эриксон Э.Г. Детство и общество. /Э.Г.Эриксон-СПб.: Речь, 2000.- 416с.

3. Хуторской, А.В. Ключевое понятие компетентности в современном образовании. Знание. Понимание. Умение, 4, 58-64 2011 г.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

5. Pedagogik atamalar lugʻati // R.X. Djuraev va boshqalar.- “Fan” nashriyoti. Tashkent.-2008. 198 - b.105-sahifa.

6. The U.S. National Board of Education Assessment (NAEP). “Trends in the cognitive development of children from 4 to 18 years old.” Washington, DC: U.S. National Board of Education Assessment, 2021. 54 p.